

Jumaniyozova Nafosat Farxod qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti
jumaniyozovanafosat25@gmail.com

BADIIY MATN VA UNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada badiiy matn tushunchasi, uning tarkibi, mazmun-mohiyati va o'quvchilar tomonidan idrok qilinishi tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy matnni o'rganish va tahlil qilish jarayonida qo'llaniladigan uslublar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy matn, metodologiya, g'oyaviy-estetik yo'nalish, obektiv, subektiv, analiz, sintez.

МЕТОДОЛОГИЯ АНАЛИЗА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

В данной статье анализируются понятие художественного текста, его структура, содержание и восприятие учащимися. Также освещаются методы, применяемые в процессе изучения и анализа художественного текста, современные педагогические подходы и возможности развития самостоятельного мышления.

Ключевые слова: художественный текст, методология, идейно-эстетическое направление, объективность, субъективность, анализ, синтез.

THE METHODOLOGY OF ANALYZING LITERARY TEXTS

This article explores the concept of literary text, its composition, essence, and how it is perceived by students. It also examines the methods used in the process of studying and analyzing literary texts, modern pedagogical approaches, and the opportunities for developing independent thinking.

Keywords: literary text, methodology, ideological-aesthetic approach, objective, subjective, analysis, synthesis.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev Oliy Majlisa murojaatnomasida islohotlar jarayonida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan rivojlantirishda yosh avlodning kelajagi uning barkamol kadr bo'lib voyaga yetishi masalasiga to'xtalar ekan, "Har qanday jamiyat taraqqiyotida uni kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli, biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azm-u shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz" [1] deb ta'kidlaganlarida ham kelajak avlod masalasi barcha davrlarda ham muhim ahamiyat kasb etishi eslatib o'tganlar.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda kitobxonlikning, badiiy asarlarning o'rni beqiyosdir. Badiiy adabiyot inson tafakkurini, didini va ma'naviy dunyosini boyitadigan muhim vositalardan biridir. Badiiy matnlar orqali o'quvchilarda estetik did, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-hayotiy tajriba shakllanadi. Shuning uchun badiiy matnlarni o'qish va ularni tahlil qilish o'quv-tarbiya jarayonida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy metodik yondashuvlar asosida badiiy matnni tahlil qilish, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, obrazlar tahlili, muallif pozitsiyasi, kompozitsion tuzilish, til va uslub xususiyatlarini chuqur anglash orqali amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). San'at va adabiyotning badiiyligi inson tabiatining ijodkorligi bilan bog'lanadi. "Badiiy" arabcha so'z bo'lib "badun", "badea" so'zlaridan olingan bo'lib, "o'ylab topish, biror narsani o'zgartirish, yangilik yaratish, ijod qilish" ma'nosini anglatadi. Badiiylilik – borliq hodisalarini jonlantirish, ularda insonga xos xususiyatlarni ko'chirishdir. Badiiylilikning yuksak ifodasi ijodkorning iqtidori va mahorati orqali u yaratgan badiiy obrazlarda aks etadi.

Badiiylilik istedod va xosiyat, an'ana va yangilik, mahorat ham tasirdorlik mezonlari asosida asarlarni baholash usuli sifatida adabiy asarga baho berish mezonlari to'g'risidagi ilmdir. Har qanday san'at asari markazida hamisha badiyat turadi. Mazmun-shakl mohiyati san'at va adabiyotda badiyat ehtiyojidan kelib chiqadi. Badiiy mushohada asosini muallif nuqtayi-nazari va munosabat xarakteri belgilaydi.

Ingliz adabiyotshunosi Iglton har qanday asar emas, hayot voqeligi badiiy obraz vositasida gavalantirilgan asargina badiiy asar sanaladi, deb hisoblaydi.

"Badiiylilik" tushunchasi Abdurahmon Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy va Navoiy asarlarida ham qo'llanilgan. Yevropada dastlab Gegel ijodi bilan bog'liq, Rossiyada XIX asrda paydo bo'lgan. XX asrning 20-30-yillarida Abdurahmon Sadiy, Fitrat asarlarida va o'quv qo'llanmalarida "badiiylilik", o'rinda "nafislik", "nafis adabiyot" atamaları ishlatilgan.

F.M.Dostoyevskiy fikricha, "...badiiylilik, masalan, aqalli romonnavisni olsak, o'z fikrini romandagi shaxslar va obrazlarda shuncha aniq ifoda etish iste'dodidirki, kitobxon romanni o'qib, yozuvchi o'z asarini yaratib, o'z fikrini qanday tushungan bo'lsa, xuddi shunday tushunadi" [2]. Gegel adabiyotda mahorat va uning ta'sir qudratini, Dostoevskiy esa iste'dod masalasiga alohida urg'u bergan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Badiiy matnni tahlili yuzasidan olimlarimizning bir qancha dissertatsiyalarini tahlil qilish orqali ko'plab foydali ma'lumotlarga ega bo'ldik. Quyida ulardan na'munalar berib o'tdik.

S.M.Qurbonovanning "Badiiy matnda shaxs xususiyatlarini ifodalash" [3] nomli dissertatsiyasida o'zbek tilida nutqiy aktlar orqali shaxs namoyan bo'lishi holatlari tahlil qilingan. Shuningdek, badiiy matnda shaxs xususiyatlarining ifodalanishi lingvotempera-mentlanish hodisasini qahramonlar nutqi orqali ilmiy asoslab berilgan. Shaxs temperamentining nutqda ifodalanishiga ko'ra xolerik, flegmatik, sangvinik hamda melanxolik nutq kabi turlari tahlil qilinib tavsiyalar ishlab chiqilgan.

A.T.Boltayevaning "Adabiyot darslarida o'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish" [4] nomli dissertatsiyasida o'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish jarayonining texnologik asoslari ishlab chiqilgan. O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish orqali ularni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish jarayoniga doir ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

G.H.Umurovning "Zulfiya badiiy olami va poetik maktabi" [5] nomli dissertatsiyasida Zulfiya badiiy uslubining an'anaviy tushunchalar tizimidagi o'rni, uni poetik olamining rangin qirralari, nazariy poetikadagi mazmun, shakl, obraz kabi terminlar bilan o'zaro munosabati ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan. Shoiraning o'zbek she'riyatida ilk bor "Ayol adabiyoti" ga asos solinganligi, poetik maktab yaratganligi va uning bugungi she'riyat rivojiga qo'shgan xissasi asoslangan.

M.M.Yuldashevning "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi" [6] nomli doktorlik dissertatsiyasida badiiy matnning estetik butunlik sifatidagi mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, badiiy matnda tilning estetik vazifasining namoyon bo'lish tarzi o'zbek adabiyotining eng sara asarlari misolida tahlil qilingan hamda badiiy matnning lingvopoetik tahlili tamoyillari ishlab chiqilgan. Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari bilan bog'liq qonuniyatlar o'zbek tilshunosligida "Badiiy matn lingvopoetikasi" deb nomlangan monografiya va "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" nomli o'quv qo'llanmalarida aks ettirilgan.

Sh.M.Haydarovning "Badiiy matnda partsellyativ konstruktsiyalarning qo'llanilishi" [7] nomli dissertatsiyasida partsellyativ konstruktsiyalarning mohiyati, ularning ilova va boshqa konstruktsiyalardan farqli belgilari badiiy matndan olingan misollarda aks ettirilgan. Shuningdek,

70 partsellyativ konstruktsiyalar ogʻzaki va badiiy nutqqa xoslanishi, ularning oʻziga xos tomonlari tahlil qilingan. Partsellyativ konstruktsiyalar grammatik va lingvopoetik jihatdan tasnifi ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Badiiy matn – bu adabiy ijod mahsuli boʻlib, unda muallif oʻzining gʻoya, qarash, estetik ideallarini obrazli vositalar orqali ifodalaydi. Bunday matnlar oʻzbek adabiyotining durdonalaridan tortib, zamonaviy yozuvchilarning asarlarigacha boʻlgan keng doirani oʻz ichiga oladi. Badiiy matnlar dars jarayonida quyidagi asosiy maqsadlarda qoʻllaniladi:

- estetik tarbiya;
- oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirish;
- tanqidiy fikrlashni shakllantirish;
- madaniy meros bilan tanishtirish.

Badiiy matn orqali oʻquvchilar hayotni obrazlar orqali anglaydi, ijtimoiy voqelikni baholashga oʻrganadi.

Badiiy matnni tahlil qilish – bu matn ustida ijodiy ishlash, uni har tomonlama oʻrganish demakdir. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

- matnni tushunish;
- gʻoyaviy-maʼnaviy mazmunini aniqlash;
- obrazlar tahlili;
- til vositalarining ifoda imkoniyatlarini tahlil qilish;
- matnga shaxsiy munosabat bildirish.

Badiiy asar tahlili juda qadim zamonlardan buyon ilm egalarining diqqatini tortib kelgan. Shuning uchun ham unga olimlar tomonidan turlicha taʼrif berib kelingan. Badiiy tahlil Sharq adabiyotshunoslik ilmidan azaldan muhokama mavzusi boʻlgan. Forobiy, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur singari mutafakkirlarning asarlarida badiiy tahlilga oid islomiy-diniy qarashlar aks etgan. Haqiqiy badiiyat, anglangan va anglatilgan goʻzallik kitobxonning maʼnaviyatiga-gina emas, tafakkuriga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi, uning shaxs sifatida shakllanish jarayoniga toʻgʻri yoʻnalish beradi.

Yurtdoshlarimiz: J. Azizov va G. Usovalarning qalamiga mansub “Adabiy tahlil nazariyasi va amaliyoti” risolasida: “... tahlil adabiy asarning badiiy mantigʻiga singishish maqsad qilib qoʻyilgan izohdir” [8] tarzida taʼrif beriladi. Badiiy tahlilning asl mantigʻini aks ettirish jihatidan J. Azizov hamda G. Usovalarning qarashlari haqiqatga yaqinroq. Chindan-da, “muallif obraziga yetishish” ham “adabiy asarni fikran qism va unsurlarga ajratish” ham oʻz holicha badiiy tahlil mohiyatini aks ettira olmaydi. Balki ular badiiy mantiqni kashf etish, unga yetishish yoʻlidagi bosqichlardir. Biroq yurtdosh olimlar juftligiga mansub mazkur xulosada ham, bizning nazarimizda, kichik bir yoqlamalik bordek. Chunonchi, unda hayotiy mantiqda yetishish zarurligi koʻzda toʻtilmaydi. Toʻgʻri, badiiy adabiyot uchun estetik mantiq birlamchi ahamiyat kasb etadi, ammo bu holat adabiy asarlardan kelib chiqadigan hayotiy mantiqning muhimligini aslo inkor etmaydi. Shuning uchun ham badiiy tahlil tushunchasini harakterlashda badiiy va hayotiy mantiq, tushunchalari yonma-yon qoʻyilsa, maqsadga muvofiq boʻladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, badiiy asar tahlili tushunchasiga quyidagicha taʼrif berish mumkin: badiiy tahlil adabiy asarning hayotiy va badiiy mantigʻi hamda estetik jozibasini anglash)ga yoʻnaltirilgan ilmiy faoliyatdir. Adabiy tahlilga ana shu tariqa taʼrif berilganda, hodisaga xos deyarli barcha asosiy xususiyatlar qamrab olinadi deyish mumkin. Aslida “tahlil” atamasi arabcha boʻlib, “halolash”, “eritib yuborish”, “murakkab butunni qismlarga ajratish” maʼnolarini anglatadi. Yaʼni tahlil deyishganda, badiiy matnning maʼnosi va jozibasining halolab berilishi, oʻquvchiga begona boʻlgan matnni eritib, uning shuuriga joylashga qaratilgan faoliyat koʻzda toʻtiladi. Sanʼat asaridan kelib chiqadigan hayotiy maʼnoni topish, estetik unsurlarni kashf etish, oʻrganilayotgan asarning boshqa asarlardan farqini aniqlash muayyan millat yoki insoniyat estetik tafakkoʻrini rivojlantirishga qoʻshgan hissasini koʻrsatish gʻoyat muhim. Ayni vaqtda, badiiy zavq manbai nimada ekanini, kitobxonni muayyan asardan taʼsirlanishga olib kelgan badiiy omillar, koʻrkam soʻzning mantiqiy tushunchalar doirasiga sigʻmaydigan jozibasi qayerdan kelib

chiqayotganini aniqlash ham o'ta ahamiyatlidir. Badiiy tahlil shakliga ko'ra: og'zaki; yozma singari ikki turga bo'linadi. Badiiy asar og'zaki shaklda ham tahlil qilinadi. Lekin bunday tahlilga yozma ravishda tayyorgarlik ko'rilsa, samaraliroq bo'ladi. Badiiy tahlil orasida yozma shakl keng yoyilgan. Bu tahlil turi faqat aytilgan vaqt uchungina dahldor bo'lmay, keyinchalik, katta zamoniylar oraliqlardan so'ng ham ohamlarga ta'sir ko'rsatishi, millat badiiy tafakkorini shakllantirish olishi, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tishi bilan xarakterlanadi.

Aytilganlardan ko'rinadiki, badiiy tahlil mobaynida tayyorlanish, tahlillash va umumlashtirish-xulosalash singari uch bosqich bosib o'tilishi lozim.

Tayyorgarlik bosqichida tahlil etiladigan asar matni o'rganiladi, uning tahlilga tortiladigan, alohida e'tibor qaratiladigan jihatlari aniqlab olinadi, asosiy kuzatishlar belgilab chiqiladi. Ana shunda ikkinchi - asosiy bosqich muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Tahlillash bosqichida esa asosiy ish amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Bunda matnning jozibadorligini ta'minlagan estetik omillar: timsollar tizimi, personajlar ruhiyatini ko'rsatishda qo'llanilgan usullar, ifoda tarzidagi o'ziga xoslik, til xususiyatlari singari jihatlarni tekshiriladi. Tahlil qilinayotgan asarning estetik qimmatini, milliy badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni, asarning millat estetik ongini rivojlantirishdagi o'rni belgilab beriladi.

Xulosalash-umumlashtirish bosqichida asarning muayyan ijodkor estetik taqdiri va milliy badiiy tafakkur taraqqiyotida tutgan o'rni yuzasidan umumlashma xulosa beriladi.

Badiiy tahlilda qat'iy ilmiy tartibga rioya etgan holda so'zdan obrazga, obrazdan g'oyaga qarab boriladi va tahlilning barcha bosqichlarida badiiy so'zning estetik jozibasi diqqat markazida turadi. Tahlil etilayotgan asarni qaysi jihatdan o'rganish, tadqiq etish lozimligini belgilash uning yo'nalishini tayin etadi. Badiiy asar tahlilining to'laqonli bo'lishi ko'p jihatdan, tahlilchining matnni qanday yo'nalishda tekshirishni aniq bilishiga bog'liqdir.

Asarda shakl va mazmunni anglashda - o'quv tahliliga tortilgan asarlarga tatbiq etilganda bu ikki tushuncha bir vaqtning o'zida ham estetik, ham pedagogik muammoga aylanadi. Sababi oliy ta'lim talabalari uchun ikki tushuncha faqat badiiy zavqning manbasi qaysi biri ekanini aniqlash vositasidagina emas, balki tarbiyalanuvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni qaror topdirishda shakl va mazmun tushunchalarining qay biriga ko'proq e'tibor qaratilishi kerakligini aniqlash omili ekanligini tushunishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonida boradi.

2. Asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, sujet chizig'i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqning o'sishini ta'minlaydi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfdagi o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi [9].

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lgan omillardan biri uning o'quvchilarga hissiy ta'siridir. O'quvchilar muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Matnni tahlil qilish o'quvchida fikr qo'zg'otishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan dalillarga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmatini, badiiy go'zalligi ham alohida qayd qilib o'tiladi.

Boshlang'ich sinflarda asar tahlilida adabiy janr turlari – ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq bilan birga badiiy til vositalari – sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a bilan ham amaliy ravishda tanishtiriladi.

"Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkon yaratishdan iboratdir.

O'quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g'oya, muammolarni to'liq tushunishiga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi"[10].

O'qituvchi badiiy asar ustida ishlashda quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

1. Asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishi lozim.
 2. Asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olishi lozim.
 3. Har bir asar tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi kerak.
 4. Asarni qanday metodlar yordamida o'rganishni aniqlashi lozim.
 5. O'quvchilar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini belgilab olishi kerak.
- Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash uch asosiy bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich. Mazkur bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirishdan iborat.

Ikkinchi bosqich. Ushbu bosqichning vazifasi va ish mazmuni voqealar rivojining bog'lanishini belgilash, ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash, asar kompozitsiyasini aniqlash, asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholashdan iborat.

Uchinchi bosqich. Bu bosqichning ish mazmuni ishtirok etuvchi shaxslarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash va baholash, asarning g'oyasini aniqlash, badiiy asar hayotni bilish manbai va san'at asari sifatida baholashdan iboratdir [9].

Yuqoridagi bosqichlardan so'ng ular bilan ijodiy xarakterdagi amliy-ijodiy ishlar olib borishimiz mumkin. Agar ular asar haqida insho yoki bayon yozish amaliy topshiriqini bajarsa, asar haqidagi bilimlari yanada mustahkamlanadi.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni o'qishga tayyorgarlik quyidagicha tashkillashtiriladi. Asarni o'qishga kirishishdan oldin o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga tayyorlash lozim bo'ladi. Chunki o'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi.

Ma'lumki, sinfda o'qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadi. O'quvchilarni matn bilan tanishtirish o'qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi.

Tayyorgarlik bosqichi yozuvchilar haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqea-hodisalarni idrok qilish, asar pafosini his etish, notanish va ko'p ma'noli so'zlar, murakkabroq tarzda obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Agar asar yil fasllari haqida bo'lsa, tabiat qo'yniga sayohat uyushtirish ham sinfda o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Matn bilan dastlabki tanishuvdan so'ng quyidagicha savollar bilan murojaat qilish darsda o'quvchilarning faolligini oshiradi:

1. Hikoyadagi qaysi epizodni qiziqarli deb o'ylaysiz?
2. Hikoya qahramonlaridan qaysi birining xatti-harakatini ma'qullaysiz? Qaysi birining fe'l-atvori, o'zini tutishi sizga yoqmad?

3. Hayotda shunday kishilarni uchratganmisiz?

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari quyidagilar:

1. O'quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan dalillarni o'quvchilarning o'z hayotida kuzatganlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish.

2. Yozuvchining hayoti va ijodiga qiziqish uyg'otish. Masalan, 3-sinf "O'qish savodxonligi darsligi" [11] da Rauf Tolib hayoti va ijodi haqida quyidagicha ma'lumotlar berish mumkin: Rauf Tolib Toshkent shahrida tug'ilgan. Shoirning "Ona yurt", "Eshitmadim demanglar", "Yurt mehri", "Qiziq tomosha", "Jirafaning bo'yni nega uzun?", "Sehrgar do'stim bor" kabi o'ndan ortiq kitoblari nashr qilingan. Shoirning bolaligi urushdan keyingi og'ir yillarga to'g'ri keldi. Shoirning "Gulxan", "G'uncha" jurnallarida ishlashi bolalar hayotiga chuqurroq kirishiga sabab bo'lgan.

3. O'quvchilarni asarni hissiy idrok etishga tayyorlash.

4. Asar mazmunini tushunishga xalal beradigan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini tushuntirish. Masalan, 3-sinf "O'qish savodxonligi" [11] dagi "Porloq Yulduz" matni ustida ishlaganda so'z va iboralar lug'ati quyidagicha bo'lishi mumkin:

usturlob - yulduzlarning osmonda joylashish o'rnini aniqlovchi asbob;
 chakmon - ustki kiyim turi;
 za'faron - sarg'ish rang.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tilisiga muhabbat hissi, badiiy asrni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi. Demak, badiiy matn orqali biz ularga nafaqat o'quv materialimizni, balki, estetik va axloqiy tarbiyani ham singdirib borishimiz mumkin. Shuningdek, uni chuqur tahlil qildirish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, badiiy tafakkur va hayotni obrazli idrok etish malakasi shakllanadi. O'qituvchi esa bu jarayonning bosh yo'naltiruvchisi sifatida zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalangan holda ta'lim samaradorligini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnoma. //Xalq so'zi. 2020-yil 29-dekabr.
2. Ruzmatova R.D. "Xolid Husayniy asarlarining badiiy o'ziga xosligi: pedagogika. fanlari bo'yicha falsafa doktori.diss. – Toshkent., 2020. –12 b".
3. Qurbonova S.M. Badiiy matnda shaxs xususiyatlarini ifodalash: pedagogika. fanlari bo'yicha falsafa doktori.diss. –Farg'ona, 2018. 128 b.
4. Boltayeva A.D. Adabiyot darslarida o'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.diss.–Toshkent, 2020.157 b.
5. Umurova H.G. Zulfiya badiiy olami va poetik maktabi: filologiya.fanlari. doktori. diss. –Samarqand., 2019. 249b.
6. Yuldashev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: filologiya.fanlari.doktori. diss.–Toshkent, 2009. 314 b.
7. Haydarov Sh.M. Badiiy matnda partsellyativ konstruktsiyalarning qo'llanilishi. pedagogika. fanlari bo'yicha falsafa doktori.diss. –Toshkent., 2011. 147 b.
8. Nazarov B. va boshq. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. – T.: Tafakkur qanoti, 2012.
9. Qosimova K., S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, SH. Sariyev. "Ona tili o'qitish metodikasi"– T.: "NOSHIR", - 2009. 352 b.
10. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: "O'qituvchi", 1992. 160 b.
11. Baynazarova D.D. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. III qism. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 96 b.